

## JANNI RODARI VA XUDOYBERDI TO'XTABOYEV ASARLARIDA FANTASTIKA YO'NALISHIDAN FOYDALANISH

**Olimjanova Dilafruz Orif qizi**

*Namangan Davlat Universiteti akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbek bolalar adabiyotining taniqli namoyandaligidan biri Xudoyberdi To'xtaboyev o'z asarlarida bolalar xarakterini, bola ruhiy dunyosini g'oyatda mukammal yoritgan yozuvchilardan hisoblanadi. Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek bolalar adabiyoti, xususan, prozasida yangi davrni boshlab berdi. U yaratgan qahramonlar xatti-harakati, gap-so'zlari, xarakteri bilan yosh kitobxonlarga nihoyatda manzur bo'ldi. Yozuvchi o'z tabiatidagi bolaga xos quvnoqlik va beg'uborlikni asarlariga ko'chira oldi. Ayni shu yumor bolalar qalbiga yaqin edi, bu yaqinlik uning yosh muxlislari tobora ortib borishiga sabab bo'ldi. Yozuvchi yaratgan qahramonlar betakror xususiyatlari bilan ko'plab kitobxonlar qalbida yashab kelmoqda. Jumladan, uning Hoshimjon, Mirobiddinxo'ja, Orifjon, Akrom qovunchi singari qahramonlari, ayniqsa, yosh kitobxonlarga allaqachon yod bo'lib ketgan. Sababi, ushbu qahramonlar xarakterining esda qolar darajada yorqinligi, quvnoqligi, bolaga xos beg'ubor va soddadilligi, kulgi, hazil-mutoyibaga moyilligi xarakter tabiatini yanada yorqinlashtirgan. Maqolada yoritilgan masala faqatgina Xudoyberdi To'xtaboyevning biografiyasi hamda yozgan asarlarini sanash emas, balki uning romanlariga xos xususiyatlarni tahlil qilish hamdir.

**Kalit so'zlar:** Xudoyberdi To'xtaboyev, roman, obraz, qahramon, komizm, ijtimoiy muhit, ruhiyat tasviri, qahramon ruhiyati, xarakter, yumor, qahramon, ifoda.

O'zbek bolalar adabiyoti, xususan bolalarga atalgan nasriy adabiyot namunalari deganda, dastlab, ko'z oldimizga Xudoyberdi To'xtaboyev keladi. Hozirgi davr kitobxonlari borki Xudoyberdi To'xtaboyevning hech bo'lmasa biri asarini qiziqib mutolaa qilmagan bo'lsa. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos tabiati, xususiyatlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarbop yo'sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Adib o'zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Uning "Sariq devni minib" romani dunyoning 20 dan ortiq tillarga tarjima qilinishi va Janni Rodari tahsiniga sazovor bo'lishi buning yaqqol dalilidir. Roman tahliligao'tishdan oldin, dastlab, asar

nomiga to'xtalsak. Savol tug'iladi: Nega aynan Sariq dev? Oq emas yoki qora emas? Sariq olov rangi. Olov esa odatda nafsga qiyoslanadi. Nafsingir, nafsiga erk beruvchi kimsalarga nisbatan nafsi olov iborasi ishlatilishi bejiz emas, axir. Devning esa xalq og'zaki ijodidagi ramzi yomonlikdir. Unga yo'liqqan jonzot omon qolmog'i dargumon. Demak, biz mutolaa qilayotgan asar qahramoni Hoshimjon Ro'ziyev ham Sariq devni minib ya'ni nafsiga erk berib yo'lga otlandi. Xo'sh, nafs devig'alaba qozonadimi yoki Hoshimjon? Asarning ikkinchi qismi hisoblanmish "Sariq devning o'limi"ni o'qisangiz ushbu savolingizga javob topasiz. Hoshimjon asar yakunida o'z nafsini yengadi va o'z kuchini yaxshi, foydali ishlarga sarflay boshlaydi. Ilmsizlik bilan, tajribasizlik bilan hech qayerga bora olmasligini anglab yetadi. Bu esa har bir bola uchun ibratlidir.

Janni Rodari bitgan filastrokkilar bolalar uchun vatanparvarlik hamda ma'naviy tarbiyaning ilk sabog'i bo'lib xizmat qiladi. Rodari filastrokkilaridagi ana shu tendentsiyalar keyinchalik uning ijodidagi asosiy yo'nalish bo'lib qoladi. Ana shu tendentsiyalar Jelsomino, Chipollino, Pomidor haqidagi ertak-rivoyatlarda etakchilik qiladi, tinchlik, ozodlik va adolat uchun bo'lg'usi kurashchilarni tarbiyalab voyaga etkazadi. Rodari ijodiy olami rang-barang, uning asarlarini o'qiganing sari yangi-yangi ma'nolarni kashf etaverasan kishi.

60-yillarda (o'tgan asr) Rodarining diqqat-markazida maktab va madaniyat muammolari asosiy o'rin tutgan. Masalan, o'qitish usullarini qanday yangilasa bo'ladi? O'quv jarayonini qanday qilib o'quvchiga yoqadigan va ijodiy tarzda tashkil etish mumkin? Boshlang'ich maktabning sobiq o'qituvchisi, shoir Rodari imlo xatolarini tuzatish jarayonidagi she'riy hayajonni ilg'ab ola biladi. Uning maktab bilan aloqani uzmaganligiga ham sabab shu edi.

Janni Rodari ijodiyotning o'ziga xos qoidayu qonuniyatlarini, «xayolot grammatikasi»ni ishlab chiqishni orzu qilgan ediki, bu usul yordamida o'zida ijodiy imkoniyatlarni his qilgan har qanday kishi rassom, yozuvchi, san'atkor, ijodkor bo'lishi mumkin edi. Janni Rodari atoqli bolalar yozuvchisi, shoiri bo'libgina qolmasdan, balki katta jurnalist, olim, jamoat arbobi ham edi. Janni Rodari pedagog va ijodkor sifatida hamisha ommaning madaniy jihatdan kamol topishiga intildi, kishilarni «o'qimishli» va «omi» deb ajratadigan, kamsitadigan an'anaviy to'siqni engib o'tishni istadi. U jurnalist sifatida ortda qolmadi: Rodari-jurnalist ayni vaqtda yangiliklarni ko'rib, yorituvchi, faktlar to'plovchisi ham edi, uning uslubi sodda va ravonligi, jo'shqinligi, ommabopligi bilan ajralib turardi. U «hamma uchun» yozardi. Rodari har bir yangi narsaga hech qachon qiziqishining so'nmasligi, doimo

olg'a intilganligi uchun ham «hamma uchun» yozishning uddasidan chiqqandi. Janni Rodari malakali madaniyatning katta zaxirasiga, tilshunoslik, folklor, psixologiya va antropologiya jabhalarida chuqur bilimlarga ega edi. Pedagogikani gapirma ham bo'ladi. Biroq u shunday kamolotga erishgani bilan maqtanmasdi, kamtar edi, o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilmas edi. Rodari o'zidagi ana shu xislatlarni, madaniyat va aql-zakovatni «Paeze sera» va «Djornale dei jenitori»da («Ota-onalar gazetasi») chop etiladigan mazmunan teran maqolalarida, filastrokkilarida, she'rlarida, jajji kitobxonlar hamda hali o'qishni bilmaydigan yosh tinglovchi muxlislariga atalgan ertaklarida namoyon etgan edi.

Bolalar dunyosiga yanada kuchliroq mehr qo'yishim va tez-tez sog'inib yurganim – bolalar adabiyotiga keskin o'tib ketishimga mashhur bolalar adibi va ertakchisi Janni Rodari janoblarning kamina haqida aytgan iliq fikrlari ham turtki bo'lgan edi. U Italiyaning Rim shahrida o'tkazilgan, bolalar adabiyotiga bag'ishlangan Xalqaro forumda jajjigina bir kitobcham haqida kattagina gap aytgan, "Sehri qalpoqchadagi quvnoq yumor, boy fantaziya menga ma'qul bo'ldi" degan so'zlari bilan mening yuragimda o'z maqsadlarimga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otgan edi. Buyuk yozuvchining o'sha so'zlari ikkilanib yurgan holatimga bir aniqlik, yorqinlik, dadillik kiritganday bo'ldi. Chunki o'sha kezlari "qo'limni musht qilib jinoyatchilar bilan tokaygacha olishib yuraman" degan paytlarim ham tez-tez bo'lib turardi. Shunday paytlarda ustozim Said Ahmad shunday der edi: "Menga qara, feletonchi ukam, feleton nimaga o'xshaydi, aytaymi: feleton ragatkaga kesak solib, bostirib kelayotgan tankani to'xtatib qo'yishga intilgandek bir gap". Ustoz "Xalq so'zi" gazetasining 2000 yil, 19 yanvar kungi sonida e'lon qilingan "Iste'dodning olmos qirrasini" nomli maqolasida ijodimga bo'lgan munosabatini ochiq-oydin bayon etgan edi: "Nima bo'ldi-yu, oltmishinchi yillarga kelib Xudoyberdi yozishdan bir muddat to'xtab qolgandek bo'ldi. Qissalar yozmay qo'ydi. O'zini feletonchilikka urdi. Respublika gazetalarida kun ora feletoni bosiladigan bo'lib qoldi. Men bu bolaga mehr qo'ygan edim, undan yangi-yangi qissalar kutar edim. Ammo u feleton yozishdan bo'shamadi. Bu orada bolalar adabiyotidan bir qadar fayz keta boshlaganga o'xshardi. Uni qidirib redaksiyaga bordim, popirus tutatib allaqanday sud hukmlari, militsiya tuzgan aktlarga ko'milib feleton yozayotgan ekan. Xudoyberdi meni ustoz deb qo'l bergan, yozganlarini nazarimdan o'tkazib turadigan shogird edi. Keyingi ikki yilda negadir mendan o'zini olib qochadigan, uchrashib qolganlarimizda qandaydir bir gunoh ish qilgan boladek ko'zini yashirishga joy topolmay qolardi. Bu holat menga juda tanish, chunki men ham ustoz Abdulla Qahhor oldida xuddi

shunday ahvolga tushgandim. Bu voqea bir umr esimdan chiqmaydigan saboq bo'lgan edi.

Ming to'qqiz yuz qirq olti, qirq yettinchi yillarda hikoya yozishni tashlab, feleton yozishga berilib ketgandim. Nazarimda o'sha vaqtlari butun O'zbekistonda mendan mashhur, mendan obro'li yozuvchi yo'qdek edi. Sartaroshxonalarga meni benavbat kiritib yuborardi, restoranlarda esa mutloq notanish odamlar yemoq-ichmoq haqini to'lab qo'yishardi. Mehmondorchilikka borsam dasturxonning to'riga o'tqazishar, to o'tirmagunimcha qo'l qovushtirib "odob" saqlab turishardi. O'zimga o'zim "hikoya yozib bekorga vaqtimni sarflab o'tiribman, feleton g'irt mazza ekan", deb, o'zimdanda ketgan paytlarim edi. Ana o'shanday uchib-qo'nib yurgan paytlarimda redaksiyaga Abdulla Qahhor kelib qoldi. He yo'q, be yo'q "Yozuvchilar soyuzidan chiqishga ariza berasizmi, yoki o'zimiz chiqaraveraylikmi?" deb qoldi. Nima uchun unaqa deytganiga ikkilanib qoldim. Nima uchun ariza yozib berishim kerak? Tilimga gap kelmay chaynalib qoldim.

– Nega unaqa deyapsiz, domla? – dedim qo'rqa-pisa.

– Soyuz a'zolarining hammasi asar yozishayapti, uch yildan buyon birorta hikoyangizni o'qimadim. Demak, siz yozuvchilikni tashlagansiz, unday bo'lsa soyuzni bo'shatib qo'yish kerak.

– Feletonlarimni o'qimayapsizmi?

– Feleton adabiyot emas, jurnalistikaga kiradi.

– Ikki oycha bo'ldi, bitta hikoyam bosilgandi. O'qidingizmi?

– O'qiganman, – dedi domla. – Hikoyangizdan qamoqxonaning hidi kelyapdi. Feleton yozaverib, odamlardan fazilat emas, nuqson qidiradigan bo'lib qolibsiz. Adabiyot o'quvchi qalbiga nur olib kiradi, go'zallik, odamiylik, rahm-shafqat, hayotga, odamlarga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Siz esa odamlarda faqat yomonlikni, yovuzlikni ko'rgansiz, attang-attang, sizdan qanchadan-qancha umidlarimiz bor edi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning yana bir asarida boylik, to'kin-sochinlikda ulg'ayayotgan oila farzandlarining tanazzuli tasvirlanadi. Bu o'sha ma'lum va mashhur "Mungli ko'zlar" romanidir. Inson hayotining ko'p qismida bo'lib o'tgan voqealar uning ko'zlarida zohir bo'ladi deyishadi. Haqiqatdan ham shunday! Hayotdagi quvonch-u tashvishlarni ko'rib, barchasiga emotsiya bildirish inson harakatlari va ayniqsa ko'z qorachiqqlari namoyon bo'ladi. Yoshlikda inson ko'zi deyarli quvonchdan porlaydi deymiz, aslida esa hayot bir tekisda ketmaganidek yoshlik quvonchlari ham silliq ketmaydi. Buning isbotini asardagi Akbar orqali ko'rishimiz mumkin. To'g'ri, bu badiiy asar deyishimiz mumkin, ammo

asarlarda ham hayotiy haqiqat borligi barchaga ayon. Ko'p ko'rganmiz, aksariyat boy oilalarning farzandlari hayotidan mamnun, xayollaridagi barcha istaklari ro'yobga chiqqanidan g'oyatdan sarmast bo'lib yurishadi. Ular uchun imkonsiz narsaning o'zi yo'qdek. Asarda yozuvchi aynan shunday bolalar holatini ochishga harakat qilgan. Shuningdek, yozuvchi asarga nom qo'yishda ham o'sha mungli bolalar nigohini kattalar nigohiga qadashni istaganidadir. Badiiy asarlarda inson tasvirlanar ekan, albatta ruhiyat yetakchi planga chiqadi, chunki uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, chunki u doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi. Ijtimoiy muhitning bola ruhiyatiga ta'siri masalasi ushbu romanda yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi "Ruhi, dunyosi pok bo'lgan" bolalar qismatini jamiyat bilan konfliktda tasvirlaydi. Asar qahramonlarini adib boshqa asarlariga nisbatan farqli tasvirlaydi. Sababi, u yaratgan bolalar obrazlarining ko'pchiligi go'lroq, ko'pincha yo ochlikdan qiynalgan, yo maktab direktori va o'qituvchilaridan dakki eshitib yuruvchi, sodda qishloq bolalari edi. Ammo ushbu asardagi bolalar hech qanday muhtojlik bilmagan, erka va arzanda bolalar, roman qahramonlari katta shaharda, dang'illamakoshonada yashaydilar.

Yozuvchining asl maqsadi -yomon illatlar: boylikka hirs qo'yish, ta'magirlik, odamlar haqqini yeyish, insonga hech qachon mutloq baxt bermasligi, aksincha inson boshga bitmas-tuganmas azob-uqubat olib kelishini tasvirlash bo'lgan bo'lsa ne ajab. Ota-onaning azobda ekanligi, hech bir farzand uchun yoqimli holat emas. Bu holat ularning qalbini armon-alamga, ko'zlarini mungga to'ldiradi. Mung va fojealar esa inson ruhiyatiga o'z ta'sirini va izini sezdirmay qolmaydi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jumaboyev M. O'zbek bolalari adabiyoti, –Toshkent.: O'qituvchi, 2002.
2. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi, –Toshkent.: Sharq, 2007.
3. To'xtaboyev X. Mungli ko'zlar, –Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2020.
4. To'xtaboyev X. Besh bolali yigitcha, –Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2019.
5. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)